

ERNAZAROVA MUNISXON JO'RAQULOVNA

**BOSHLANG'ICH SINFLAR
O'QUVCHILARINING
INTELLEKTUAL QOBILYATLARINI**

**Toshkent
2024**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNVERSITETI

ERNAZAROVA MUNISXON JO'RAQULOVNA

**BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING
INTELLEKTUAL QOBILYATLARINI
KLASTERLI YONDASHUV ASOSIDA
RIVOJLANTIRISH**

MONOGRAFIYA

Toshkent
«Book trade 2022»
2025

UO‘K 373.3;37.013.2

KBK 74.202.5

E-35

Ernazarova M.J. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektual qobiliyatlarini klasterli yondashuv asosida rivojlantirish Monografiya. – T.: “Book trade 2022”, 2025. 100 b.

Monografiyada boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining intellektual qobiliyatlarini klasterli yondashuv asosida rivojlantirish masalalari yoritilgan.

Monografiyadan boshlang‘ich ta‘lim yo‘nalishida o‘qiyotgan talabalar, shuningdek umumiy o‘rta ta‘lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari foydalanishlari mumkin.

Tuzuvchi:

M.J.Ernazarova - *Chirchiq davlat pedagogika universiteti “Umumiy pedagogika” kafedrasini o‘qituvchisi.*

Taqrizchilar:

Raxmanova Muqaddas Qaxramonovna - *Chirchiq davlat pedagogika Universiteti professori, pedagogika fanlari doktori.*

G.Berdiyeva - *Axborot texnologiyalari va menejment universiteti dotsenti Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, (PhD).*

Monografiya Chirchiq davlat pedagogika universiteti Ilmiy texnik kengashi tomonidan nashrga tavsiya etilgan (7-son bayonnoma, 2024 yil 16 dekabr)

ISBN 978-9910-9027-4-1

KIRISH

Xalqaro hamjamiyatda pedagogik innovatsiyalar global miqyosda ahamiyatli bo‘lib, ta‘lim-tarbiya jarayonlarida insoniyat uchun serqirra imkoniyatlarni ochib bermoqda. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasida belgilangan “Ilmiy-tadqiqot va innovatsiya faoliyatini rag‘batlantirish, ilmiy va innovatsiya yutuqlarini amaliyotga joriy etishning samarali mexanizmlarini yaratish¹ hamda innovatsion rivojlanish vazirligining asosiy faoliyat yo‘nalishlaridan ta‘lim tizimida innovatsiyalarni ishlab chiqishni ta‘minlash kabi ustuvor vazifalari ta‘lim muassasalarida o‘qituvchilar innovatsion faoliyatini tashkil etish zarurligini ko‘rsatmoqda. Mamlakatimizda ta‘lim tizimida o‘qituvchilarining innovatsion faoliyati samaradorligini oshirish va rivojlantirishga alohida e‘tibor qaratib kelinmoqda. 2017-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo‘nalishi bo‘yicha Harakatlar strategiyasida “uzluksiz ta‘lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta‘lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash siyosatini davom ettirish; ta‘lim va o‘qitish sifatini baholashning xalqaro standartlarini joriy etish asosida oliy ta‘lim muassasalari faoliyatining sifati hamda samaradorligini oshirish, o‘rta maxsus, kasb-hunar va oliy ta‘lim muassasalari bitiruvchilarini ishga joylashtirish hamda xususiy tadbirkorlik sohasiga jalb etish² bo‘yicha ustuvor vazifalar belgilab berilgan edi. Mazkur vazifalarning samarali ijrosini ta‘minlash respublikamiz oliy ta‘lim tizimining taraqqiyot tendentsiyasini chuqur tahlil qilish va ta‘lim muassasalarining o‘qituvchilarini innovatsion faoliyatining samaradorligini oshirish bo‘yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishni taqozo etdi.

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.// 4-nashr 2018-26 b

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni.// 4-nashr 2018-26 -27 b

Yurtimizda olib borilayotgan keng ko'lamli islohotlar yoshlarimizning xorijdagi tengdoshlari bilan ilm-fan, madaniyat, tadbirkorlik, sport va boshqa sohalarda faol muloqotda bo'lishi, ularning o'z salohiyatini dunyo miqyosida namoyon etishi uchun katta imkoniyat yaratmoqda. Maktabgacha ta'lim tizimining jamiyatimiz hayotidagi katta o'rni va ahamiyatini e'tiborga olib, maktabgacha ta'lim vazirligi tashkil etildi hamda 11 yillik ta'lim qayta tiklandi. Kreativlik va innovatsion tafakkurni rivojlantirish muhim indikator sifatida e'tirof etildi. Shular o'qituvchilarning innovatsion faoliyatini globallashtirish jarayoni talablari asosida takomillashtirish zaruriyatini vujudga keltirdi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF 60 sonli "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi 2022-2026-yillarga bag'ishlangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni, va 2017 yil 29 noyabrda PF-5264-sonli "O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida" Farmonlari, 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning ijrosini ta'minlashda mazkur dissertatsiya ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

I-BOB BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING INTELLEKTUAL QOBILIYATLARINI KLASTERLI YONDASHUV ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

1.1-§. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual qobiliyatlarini klasterli yondashuv asosida rivojlantirish pedagogik muammo

Ma'lumki, har qanday davlatning rivojlanishi uning intellektual salohiyatiga bog'liq. Intellektual salohiyat xalqaro andozalardagi zamonaviy taraqqiyotni ta'minlay oladigan mustaqil fikrli, malakali bilimli, yuksak insoniy fazilatlariga ega kadrlar hisoblanadi. Davlatimiz esa mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki kunlardan oq intellektual salohiyati yuqori kadrlarning yangi avlodini shakllantirishga yo'naltirilgan davlat siyosatini yuritib kelmoqda. Bu yo'lda amalga oshirilgan asosiy vazifalaridan biri mustaqil O'zbekistonni rivojlantirishga asos bo'ladigan yangi ta'lim tizimining tashkil etilishidir.

Respublikamizda globallashtirish sharoitida yuz berayotgan ta'lim sohasidagi o'zgarishlar asosida boshlang'ich ta'lim tizimida kasbiy va metodik faoliyat samaradorligini oshirish, o'qituvchilarning kreativ potentsialini rivojlantirish yuzasidan keng miqyosda izlanishlar olib borilmoqda. Mazkur jarayon bugungi kunda boshlang'ich ta'lim jarayonida ta'lim klasterini ta'minlashning texnologik bosqichlari, o'quv-bilish faoliyati tavsifiga mos keluvchi muammoli, hamkorlikda o'qitish, individuallashtirish, izlanishli-tadqiqotchilik, o'quv axborotlari ustida ishlash, ta'lim-tarbiya jarayonini modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlari: noformal (o'qitish-asosiy izlanish - Hamkorlik strategiyasi asosida o'quv jarayoniga innovatsiyalarni joriy qilish, onlayn o'qitish, tyutorli ta'limga urg'u berilishi) va informal (o'qitish - individual holatda va shaxsiy) o'qitish mazmunini takomillashtirish, bolalarning nutq va tafakkurini rivojlantirishning samarali shakl va

metodlarini ishlab chiqish, mashg'ulotlarning integratsiyalashuvini ta'minlashning turli modellari va texnologiyalarini yaratish zaruratini yuzaga keltiradi.

O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasida ta'lim, madaniyat, ilm-fan, adabiyot, san'at va sport sohalarini rivojlantirish ustuvor vazifalardan biri sifatida belgilangan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mamlakat parlamenti – Oliy Majlisga Murojaatnomasida ta'kidlanganidek, "O'zbekiston ilm-fan, intellektual salohiyat sohasida, zamonaviy kadrlar, yuksak texnologiyalar borasida dunyo miqyosida raqobatbardosh bo'lishi shart".

Shunday ekan, bugungi avlodni intellektual qobiliyatini rivojlantirish va bu borada ta'limda ham klasterni amalga oshirish bugungikunning talablaridan biri hisoblanadi. Insonning butun hayoti doimo uning oldida keskin va dolzarb vazifalar va muammolarni keltirib chiqaradi. Bunday muammolar, qiyinchiliklar, kutilmagan hodisalarning paydo bo'lishi shuni anglatadiki, atrofimizda haqiqatda hali ko'p noma'lum, yashirin narsalar bor. Binobarin, dunyoni chuqurroq bilish, tobora ko'proq yangi jarayonlar, odamlar va undagi narsalar o'rtasidagi munosabatlar va xususiyatlarni kashf etish zarur. Shuning uchun, zamon talabidan kelib chiqqan har qanday yangi tendentsiyalar maktabga kirmasin, dasturlar va darsliklar qanday o'zgarmasin, o'quvchilarning intellektual faollik madaniyatini shakllantirish har doim asosiy umumiy talablardan biri bo'lib kelgan va shunday bo'lib qolaveradi.

Mamlakatimiz yoshlarini jahonning taraqqiy etgan davlatlari yoshlari bilan har jabhada bellasha oladigan, kerak bo'lsa, ulardan o'z ustunligi bilan ajralib turishini ta'minlashning yagona yo'li ta'lim va tarbiyaga jiddiy e'tibor qaratishdan iborat. Davlatimiz taraqqiyotining muhim shartlaridan yana biri kadrlarni tayyorlash tizimining mukammal bo'lishi, zamonaviy iqtisod, fan, madaniyat, texnika va texnologiyalar asosida rivojlanishi hisoblanadi. Har bir yetuk mutaxassis ta'lim beradigan fanlari turkumini ilmiy – nazariy

jihatdan o'zlashtirishi, ilmiy bilishga doir g'oyalar, nazariyalar va qonuniyatlarning mazmun – mohiyatini bilishi lozim.

Intellektual imkoniyatlarni rivojlantirish muammosiga bag'ishlangan adabiyotlarni tahlili shuni ko'rsatadiki, aqliy qobiliyatning rivojlanishini bir necha ko'rinishlari namoyon etilgan: talim va tarbiya ta'sirida o'zgaradigan va rivojlanadigan aqliy qobiliyatning individual uslubi chet el psixologiyasida (V.S.Merlin, Ye.A.Klimov, N.I.Chuprikova)lar tomonidan o'rganilgan. Aqliy qobiliyat ko'p faktorli murakkab psixologik tuzilma sifatida (A. Bine, J. Piaje, Ch. Spirmen, Tyorstoun, Gilford, G. Ayzenk, R.B.Kettell, R.Sternberg)lar ishida tadqiq etilgan. Shuningdek, bu borada mahalliy olimlar M. G. Davletshin, B.R.Qodirov, E.Z.G'oziyev, V.M.Karimova, E.Z.Usmonova, R.I.Sunnatova, Z.T.Nishonovalarning izlanishlarida hamda mutafakkirlarimiz Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Abdulla Avloniy va boshqalarning fikrlarida aqliy taraqqiyot, aql imkoniyatlari va aqliy qobiliyatlar to'g'risidagi qarashlarida ham aqliy qobiliyat va uni tashkil etuvchi omillar turlicha talqin qilinganini guvohi bo'ldik. Xususan, M. M. Sultonovning "Matematika darslarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv-intellektual qobiliyatini rivojlantirish" nomli o'quv qo'llanmasida aqliy qobiliyat muammosi haqida fikr yuritilgan. M.E.Xusanovning magistrlik dissertatsiyasida esa boshlang'ich sinf matematika darslarida pedagogik texnologiyalardan foydalanish metodikasi, ya'ni pedagogik texnologiya haqida tushuncha, uning xususiyatlari, interfaol metod, ularning turlari va boshlang'ich sinflarda ba'zi bir darslarni interfaol metod asosida o'qitish metodikasi bayon etilgan. D. Mengliyevaning magistrlik dissertatsiyasida boshlang'ich sinf matematika darslarida arifmetik amallarni pedagogik texnologiyalar asosida o'qitish metodikasi bayon etilgan, X. Sharofiddinovning magistrlik dissertatsiyasida esa uzluksiz ta'lim tizimida aqliy qobiliyat diagnostikasi va psixokorreksiyasida aqliy qobiliyat muammosini o'rganib chiqqan, F. Qosimovning nomzodlik dissertatsiyasida boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida